

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVESITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 330.142.222**

MIRZAYEVA MATLUBA G‘AYBULLA QIZI

**XUSUSIY BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISH
YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: Kalonov Muxiddin Baxritdinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. XUSUSIY BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHNING IQTISODIY NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI.....	11
1.1. Bank kapitalashuv darajasini oshirishning nazariy asoslari va iqtisodiy mohiyati	11
1.2. Bank kapitali manbalari va uni kapitalashuv darajasini oshirishning ahamiyati.....	16
1.3. Bank kapitalini shakllantirish va kapitalashuv darajasini xorij tajribalari	30
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	46
2-BOB. XUSUSIY BANKLAR KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY TENDENSIYALARI.....	48
2.1. Xususiyl banklar kapitalashuv darajasini oshirishning amaliyl holatining tahlili	48
2.2. Xususiyl banklar kapitalashuv darajasini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati va ularning istiqbollari.....	54
2.3. Xususiyl banklar kapitalashuv darajasini oshirishdagi ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tahlili.....	64
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	80
3-BOB. XUSUSIY BANKLAR KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	83
3.1. Xususiyl banklar kapitallashuv darajasini oshirish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	83
3.2. Xususiyl banklar kapitallashuv darajasini oshirishning asosiy yo'nalishlari	91
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	96
XULOSA	98
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	103
ILOVALAR.....	111

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital bazasining kuchayishi banklarning moliyaviy bardoshliligini oshiradi, kredit berish imkoniyatlarini kengaytiradi va moliya bozorlaridagi tavakkalchilik darajasini pasaytiradi. Shu orqali xususiy sektor faoliyati faollashadi, yangi investitsiya loyihalari moliyalashtiriladi va umumiy iqtisodiy faoliyatda o'sish kuzatiladi. Shuningdek, kapitallashuvning yuqori darajasi bank tizimidagi ishonchni mustahkamlab, global moliyaviy beqarorlikka nisbatan iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi. Xususan, Jahon banki ma'lumotlariga asosan, "2020-yil oxiriga kelib dunyoning 1000 ta eng yirik banklariga tegishli birinchi darajali kapitalning umumiy kapitali 9,9 trln dollarni tashkil etdi, bu esa tarixdagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 12,7 %ga ko'pdir. 1000 ta bank uchun 1-darajali minimal kapital ham 547 million dollarga yetdi. Bu birinchi marta 500 million dollardan oshdi va COVID-19 pandemiyasi sharoitida yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramay, global bank sektori iqtisodiy buxronni yengish uchun kuchli pozitsiyada ekanligini namoyish etadi"¹. Tijorat banklari, ayniqsa, xususiy banklar kapitallashuv darajasini ta'minlashda ularning joriy likvidliligini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va passivlarning barqarorligi hisobiga ta'minlash hamda regulativ kapitalning yetarliligiga qo'yiladigan talablarni oshirish muhim o'rin tutmoqda.

Hozirgi kunda jahonda xususiy banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tavakkalchilikni boshqarishning samarador modellarini ishlab chiqish, kapital talablari me'yorlarini optimallashtirish hamda banklarning kredit faoliyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

¹ <http://www.worldbank.org/>

Shuningdek, tadqiqotlarda Bazel me'yorlari (ayniqsa, Bazel III va Bazel IV) doirasida kapitalga bo'lgan talablarning ta'sirini baholash, banklar kapital strukturasining dinamikasi va makroiqtisodiy muhitga moslashish jarayonlarini o'rganish, shuningdek, raqamli banklashuv va moliyaviy innovatsiyalar sharoitida kapitallashuvning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda xususiy banklar kapitallashuv darajasini ta'minlash va barqaror manbalar hisobiga muntazam oshirib borish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, banklarning oddiy aksiyalarini fond bozorida erkin muomalasining mavjud emasligi, banklar kapitalida davlat ulushining yuqoriligi, umumiy kapital tarkibida emission daromadning deyarli mavjud emasligi, bank aksiyalariga to'lanadigan dividend miqdorining juda pastligi, depozit bazasining zaifligi, muammoli kreditlar ulushining ortish tendensiyasiga egaligi kabi omillar banklarning kapitallashuv darajasini ta'minlashga va oshirishga salbiy ta'sir etmoqda. Xususan, "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash"² muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni yechimini topishda mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa ushbu sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xususi banklar kapitalining mohiyati, tarkibi uning yetarliligi va kapitallashuv darajasini takomillashtirish masalalari xorijlik klassik va zamonaviy iqtisodiy olimlar – A.Smit, K.Marks, I.Traxtenberg, S.Lukash, V.Kiselyev, O.Lavrushin, J.Matuk, Dj.Barlton, D.Mak-Notton, E.Ridlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq qilingan³. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, T.Karaliyev, A.Omonov, B.Babayev, U.Ortiqov, U.Rozukulov, M.Egamova, R.Qurbonovlarning ilmiy ishlarida xususi bank kapitalining alohida jihatlari tadqiq qilingan⁴.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатств народа. – Петрозаводск.: 1993. - С.271. Маркс К. Капитал. Критика политической экономики. - Т3 КН 2 М.: 1989. – С.442. Трахтенберг И. Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962.- С.547. McLeod .The Theory of credit. London.-1897y С.Н. Лукаш, А.А. Малютин «Банковская энциклопедия». Днепропетровск 1994. С-24 Банковское дело под ред. Проф. И.О.Лаврушина М- «Ф и С» 2001г. С-74. В.В Киселев. «Управление банковским капиталом» Москва «Экономика» 1997. С-18. Жан Матук. «Финансовые системы Франции и других стран» 1том перевод с англ. Москва «Финстатикформ» 1994г С-25. Э.Рид, Котлер, Э.Гилл ва Р.Смит Коммерческие банки. перевод с англ. М. «Прогресс» 1933г. С-189 Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание второе, Москва Книжный мир 2006 г С-299. Крис Дж Барлтон ва Д Мак-Нотон «Банковские учреждения в развивающихся странах», 2 том. Всемирный банк Вашингтон, Д.С 1992г. С-101.

⁴ Sh.Abdullayeva, T.Karaliyev va U.Ortikov. «Bank resurslari va ularni boshqarish» Toshkent. "Iqtisod-Moliya", 2009-yil: B-48-49. Бабаев Б.Б. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использования. Автореферат диссертации на соиск уч. степ. к.э.н. –Ташкент: БФА. 2002.-21 с.; Omonov A.A. Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati –Toshkent: DJQA, 2005. -21 b.; Ortiqov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati –Toshkent: BMA, 2008. -20 b.; Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат диссертации на соиск. учен. степ. к.э.н. –Ташкент: БФА, 2002. -22 с. Egamova M.E. "Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati Toshkent: TMI, 2019.-56 b. Qurbonov R.B. "Xususi banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash masalalari" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati Toshkent: TMI, 2012.-56 b.